

YASHIL IQTISODIYOT NAFAQAT TEXNOLOGIK YANGILANISH, BALKI EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRUVCHI JARAYONDIR.

Urunbayev Saparbek Samatovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti ORCID-0009-0004-0464-6893

urunbayevsafarbek@gmail.com

Boirova Nargiza Shuhrat qizi

Annotatsiya: “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish global miqyosdagi dolzarb vazifa bo’lib, O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda jiddiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu har bir insonning tabiatga bo‘lgan hurmati, mas’uliyati va barqaror turmush tarzi tamoyillarini qabul qilishini talab qiladi. Davlat siyosati, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tashkilotlari bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ayniqsa, mahalla kabi jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bu ekologik madaniyatni shakllantirishda tutgan o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyot, ekologik ma’rifat, ekologik madaniyat, mahalla, jamoatchilik ekologik nazorati.

Аннотация: Переход к «зелёной экономике» является актуальной глобальной проблемой, и Узбекистан также реализует важные реформы в этой области. Это требует от каждого человека бережного отношения к природе и принятия принципов ответственного и устойчивого образа жизни. Государственная политика, образование, средства массовой информации и общественные организации играют в этом процессе решающую роль. В данной статье анализируются роль и потенциал такого важного социального элемента, как махалля, в формировании этой экологической культуры и даются рекомендации.

Ключевые слова: экология, экономика, «зеленая» экономика, экологическое образование, экологическая культура, махалля, общественный экологический контроль.

Annotation: Transitioning to a "green economy" is a pressing global task, and Uzbekistan is also implementing serious reforms in this direction. This requires every individual to embrace respect for nature, responsibility, and the principles of sustainable living. State policy, education, mass media, and community organizations play a decisive role in this process. This article particularly analyzes the role and opportunities of the community as a fundamental unit, such as the mahalla, in shaping ecological culture and provides relevant recommendations.

Key words: ecology, economics, “green” economy, ecological education, ecological culture, mahalla, public ecological control.



KIRISH

Tadqiqotning maqsadi - "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning eng muhim va asosiy qadamlaridan biri mahallalarda shaxs va jamiyat ekologik madaniyati va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirishning hal qiluvchi omili sifatida resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini va atrof-muhitni asrashga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatni shakllantirish orqali barqaror turmush tarzini targ'ib qilish. Tadqiqotning dolzarbligi aholiga mahalliy ko'lamda ekologik toza texnologiyalar, inovatsiyalar va yangi biznes modellarini rivojlantirishi, shuningdek ekologik vaziyatni baholash va resurslarni kam sarf qilishni targ'ib qiladi, bu esa ekologik madaniyatni rivojlantirish zarurati bilan bog'liq.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunga kelib, antropogen omil tufayli ekologiyaga insoniyat tomonidan yetkazilayotgan zarar miqdori kun sayin ortib bormoqda. Tabiiyki bu jarayonni oldini olish va uning ta'sirini kamaytirish jahon hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Masalagaqisqa muddatli yechim sifatida, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi doirasida, 2015 yil 12 dekabrda konsensus asosida Parij kelishuvi qabul qilingan edi. O'zbekiston ham mazkur sohadagi islohotlarni amaliyotga joriy etishda mintaqada yetakchi davlatlardan biri sanaladi. O'zbekistonda tabiiy kapitalni jamg'arish bilan bog'liq faoliyatni yuritish qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, tarmoq strategiyalari va rejalaridan iborat bir neshta normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi davlatning soha istiqboliga befarq emasligidan darak. Xususan, 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-sonli Qarorga asosan, O'zbekistonning 2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan. Unga ko'ra, mazkur davrda umumiy elektr energiyasi ehtiyojida qayta tiklanuvchi energoresurslar ulushini 25% ga yetkazish, transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish, shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejaları va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq «yashil» transportni rivojlantirish, «yashil» kreditlash, ventur moliyalashtirish tizimini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Vazirlar Mahkamasining 25.11.2020 yildagi «Respublika hududlarida o'rmonzorlar, shuningdek, Orol dengizi va Orolbo'yi hududlarida «Yashil qoplamalar» barpo etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 745-son qarori tasdiqlangan. Unga ko'ra, Orolbo'yi Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, dekabr www.e-itt.uz 192 hududi ekologik fojining markaziga aylandi. Biz mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu yerda ikki million gektar yangi o'simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Vaxabov va Xojibakievning (2020) "Yashil iqtisodiyot" nomli darsligida tabiiy resurslarni tejash va ekologik texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha nazariy va amaliy



masalalar yoritilgan. Bu asar tabiiy kapitalni jamg'arishning ekologik asoslarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari. Adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy va ta'limning me'yoriy hujjatlarini o'rganish, tahlil qilish va kuzatish, tajribalarni o'rganish va umumlashtirish metodlaridan majmuiy foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. O'zbekiston XX asr oxiri va XXI boshida jahonda ekologik vaziyati eng og'irlashgan, keskin ekologik inqiroz va halokatni boshdan kechirgan mamlakat sifatida tarixga kirdi. Mamlakatimizda ekologiya, tabiatdan foydalanish va atrof-muhit muhofazasi sohasida bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan majmuiy muammolar vujudga kelganki, ulardan biri va eng muhimi ijtimoiy ekologik ong va madaniyatning pastligi hisoblanadi. Bu tabiiy boyliklarga iste'molchilik munosabatida, ulardan nooqilona foydalanishda, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi munosabatlarni bilmaslikda, umuman aytganda, shaxs va jamiyatning atrof-muhitga o'ta mas'uliyatsiz munosabatida namoyon bo'lib, oxir-oqibat ekologik muvozanat buzilishiga olib keladi.

Zero, shaxs va jamiyatning ekologik ongi va madaniyatini yetarlicha shakllantirmasdan, har qancha pul-moliyaviy mablag'lar bilan bu sohadagi muammolarni nafaqat bartaraf etish, balki erishilgan ijobiy natijalarni ham barqaror saqlab qolish mumkin emas. SHu sababli, butun dunyoda va mamlakatimizda barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi eng muhim omillardan biri sifatida ekologik ma'rifat (ta'lim va tarbiya) e'tirof etilib, u odamlarni yanada adolatli, ekologik va iqtisodiy barqaror dunyoni barpo etish uchun zarur bo'ladigan ekologik bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimi bilan ta'minlaydigan manba sifatida tan olindi.

Barqaror taraqqiyot g'oyasining maqsadi – kelajak avlodlar ehtiyojini hisobga olib, tabiat va jamiyatning o'zaro uyg'unlashgan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Bu ezgu maqsad barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi ekologik ma'rifat (ta'lim, tarbiya) tizimini taqozo etadi.

Uning zaruriyati shundaki, respublikamizdagi tabiiy resurslar va ekologik sharoitlar – iqtisodiyotga, iqtisodiyot esa ham tabiat, ham jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Mazkur bog'lanishni o'zaro uyg'unlashtirish va muvozanatga keltirish oson ish emas. Bu nafaqat ilmiy-texnologik yoki iqtisodiy yutuqlarni, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizi bilan shartlanganligi uchun ham ekologik ma'rifat hamda madaniyatni taqozo qiladi.

Ekologik ma'rifat – bu shaxsni ekologik qonuniyatlarga muvofiq hayotga va mehnatga tayyorlash uchun ekologik ta'lim va tarbiyaning yaxlit birligida shaxs va jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ekologik bilimlar, ko'nikma va malakalar, kompetentsiyalar tizimini va bu boradagi ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirish jarayoni va natijasidir.



Ekologik ma'rifatni ekologik ongli va madaniyatli shaxsning kamol topishni ta'minlovchi ekologik ta'lim va tarbiyani o'z ichiga qamrab olgan yaxlit jarayon sifatida ta'riflash mumkin. Ekologik ta'limni jamiyatda tarixan shakllangan ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o'tkazilishi va o'zlashtirilishi, ekologik tarbiyani esa ekologik qoidalar, yo'l-yo'riqlar vositasida ekologik ahloq, xulq-atvor fazilatlarining egallanishi sifatida qarab chiqish mumkin.

Ekologik madaniyat - odamlarning atrof-muhit bilan munosabatidagi o'zgaruvchan muvozanatni ekologik madaniy xulq-atvor yordamida saqlab turish uchun jamiyatga ommaviy joriy etiladigan umummadaniy ekologik bilimlar, qadriyatli mo'ljallar, xulq-atvor me'yorlari va qoidalari majmuidir. Har bir inson ekologikmadaniyatli bo'lishi uchun, eng avvalo, ilmiy ekologik bilimlarni, axloqiy-ekologik qadriyatli mo'ljallarni hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi shart.

Aytish mumkinki, faqat ekologik ongli va madaniyatli shaxs barqaror taraqqiyot va "yashil iqtisodiyot"ning muhim tarkibiy qismi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishi, ulardan oqilona foydalanishi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlarini ekologik texnika va texnologiyalar orqali isloh qilishi, shuningdek oziq-ovqat xavfsizligi, chuchuk suv, toza havo, yashil shahar va hududlarni kengaytirish, chiqindilarni boshqarish, cho'llanishga qarshi kurash kabi muammolarni ijobiy hal qilishi mumkin.

Biroq shaxs va jamiyatning ekologik ongi va madaniyatini mos holda rivojlantirmasdan "yashil iqtisodiyot"ni yo'lga qo'yish mumkin emas, zero aholining ekologik savodxonligi va korxonalarning ekologik mas'uliyatini oshirmasdan atrof-muhitga zararli tashlamalar hajmini kamaytiradigan ekologik texnologiyalarini qo'llash va chiqindi miqdorini kamaytirishning imkoni bo'lmaydi. Aynan mahalladagi turli tipdagi ta'lim tashkilotlari ilmiy-ma'rifiy markazlar sifatida ekologik savodxonlik va madaniyatni oshirishda, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutishi mumkin.

Shunday qilib, "yashil iqtisodiyot" g'oyasi aslida ekologik savodxonlik va madaniyatni to'liq ishga solish, tabiiy va boshqa turdagi resurslardan oqilona foydalanish, ularning iste'molini kamaytirish orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondiruvchi uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishidir.

Yashil ma'rifiy xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi ilmiy-ma'rifiy markazlarning vazifasi mahalla aholisining barcha qatlamlarida biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining ahamiyatini ongli ravishda tushunishini rivojlantirish va bu qadriyatni iqtisodiy faoliyatning barcha darajalarida hisobga olishdan iborat bo'lishi kerak. Ta'kidlash joizki, "yashil iqtisodiyot" yo'li mahallada amalga oshiriladigan ekologik ma'rifatdan boshlanadi va aholining ekologik madaniyatini o'z aksini topadi.



Mahalla – milliy qadriyatlar va ezgu ishlar beshigi. Mahallada asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar negizida xalqimizga xos bo'lgan mehr-muruvvat, insonparvarlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro yordam, yuksak ahloq-odob kabi azaliy ma'naviy-ahloqiy fazilatlar shakllanadi.

Davlatimiz rahbari milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylashda, inson qadrini ta'minlashda xalq hayoti ko'zgusi bo'lmish mahallaning tutgan o'rni haqiqatan ham ulkan ekanligini alohida ta'kidlagan: "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz.

Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'inifa aylantirish vazifasini o'z oldimizga qo'ymoqdamiz. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi". Shunday ekan, mahalla jamiyatdagi jamiki munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevor bo'lib, milliy an'ana va qadriyatlar – o'zbek xalqi ma'naviyatining asosi sifatida nafaqat jamiyat, balki tabiatdagi xalqimiz manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan jamiki moddiy va ma'naviy boyliklar, hodisalar majmui bo'lib, ekologik qadriyatlar, ekologik xulq-atvor va ekologik ahloq namunalari uning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma'naviyat asosida ahloq yotadi. Axloqiylik insondagi go'zal odob va xulqlar majmui bo'lib, shaxsning o'z-o'ziga, o'zga insonlarga va atrof-muhitga munosabatlarida o'z aksini topadi. Agar insonlarda bu munosabatlar yetarli tarbiyalansa va shakllansa, ona-Vatanga, ona-Tabiatga xizmat qilishdek buyuk, olijanob maqsad amalga oshadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Lekin tarbiya degani faqat maktab tarbiyasidan iborat emas. Hozir hammamiz bor aybni maktabga ag'darishga o'rganib kolganmiz. Mahalla, oila, keng jamoatchilik-chi? «Bir bolaga yetti mahalla - ham ota, ham ona» degan maqolning haqiqiy ma'nosini anglaydigan vaqt keldi. Anglab, shu asosda yashaydigan vaqt keldi" [3]. Shunday ekan, mahallalardagi





ekologik qadriyatlar, mahalla ahlining ekologik xulq-atvori va ahloq-odobi kamol topayotgan yosh avlod uchun ibrat, samarali taqlid namunasi bo'lib, bu mahalladagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida ekologik ta'lim va tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyatini belgilab beradi.

Har bir mahallada rasmiy, norasmiy va informal ekologik ma'rifatni yo'lga qo'yish orqali ekologik madaniyatni majmuiy shakllantirish tizimi joriy etilishi lozimki, bunda etnoekologik imkoniyatlardan ham samarali foydalanish shart- sharoitlari yaratilishi lozim. Chunki respublikamiz mahallalarida 130 dan ziyod turli millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Etnoekologiya etnografiya va odam ekologiyasi o'zaro tutashgan joyda shakllangan ilmiy yo'nalish bo'lib, etnos, etnik guruhlarning an'anaviy hayotiy ta'minot tizimlari, tabiatdan foydalanishi, unga ta'sir ko'rsatishi sohasidagi an'analari, urf-odatlar, shuningdek etnoekotizimlar qonuniyatlarini o'rganadi. Boshqacha aytganda, etnoekologiya aholining an'anaviy madaniyati doirasida atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan fan. Etnoekologiyaning ma'nodoshi sifatida "xalq ekologiyasi" iborasini qo'llash mumkin.

Xalq ekologiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida mahalla ahlining tabiatdan foydalanish borasidagi an'alarini ochib beradi va targ'ib qiladi, shuningdek tabiatni yemiruvchi xulq-atvorning madaniy shartlangan sabablari va uni tuzatish metodlarini ham ishlab chiqadi. SHunday ekan, har bir mahallada doimiy harakatdagi "Mahallada xalq ekologiyasi" seminarini tashkil etish va o'tkazish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish bo'yicha milliy va mahalliy siyosatni amalga oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri jamoatchilik ekologik nazoratidan samarali foydalanish hisoblanadi. Jamoatchilik ekologik nazorati - atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga doir jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir. Jamoatchilik ekologik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Jamoatchilik ekologik nazorati bo'yicha faoliyatga umumiy rahbarlik mahalla fuqarolar yig'inining raisi va fuqarolar yig'inining ekologiya, atrof muhit muhofazasi, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasi raisi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda jamoatchilik ekologik nazoratining quyidagi asosiy vazifalari ijrosiga e'tibor qaratiladi:

- 1) atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish;
- 2) atrof muhit holatini kuzatib borish, atrof muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash;



3) mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

4) yuridik va jismoniy shaxslarning atrof muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash;

5) atrof muhitdagi o'zgarishlar, tabiiy resurslardan foydalanilishi va ko'rilyotgan tegishli chora-tadbirlar to'g'risida davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarni hamda fuqarolarni xabardor qilishda ishtirok etish;

6) tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta'minlash.

Mahalla - fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining hududiy birligi, mahalla fuqarolar yig'ini - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida atrof muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi, atrof muhitni muhofaza qilishga va aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga doir ishlarda ko'maklashadilar.

Aholining ekologik ongi va madaniyatini shakllantirishda, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining tutgan o'rni ham katta bo'lib, bu, eng avvalo, atrof-muhit muhofazasida jamoatchilik fikrini, tabiiy resurslardan foydalanishga mas'uliyatli va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishni shakllantirishda o'z aksini topadi. Lekin kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat mahallalarda ekologiya, tabiatdan foydalanish va atrof-muhit muhofazasiga mas'ullar, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlarining shaxs va jamiyatning ekologik ongi va ekologik madaniyatini yuksaltirishdagi ishtiroki ko'zga tashlanmaydi. Yuqorida aytilganlarning barchasi hamkorlikdagi ishlar bo'lib, mahalla ahlining ekologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Inson va atrof-muhit munosabatlari muammosiga ekologik ma'rifat va madaniyat nuqtai nazaridan yondashish davlat amaldorlari, qonun chiqaruvchilar, tabiatdan foydalanuvchilar va fuqarolarning munosabatini amalda o'zgartirishga imkon beradi.

Xulosa va tavsiyalar.

"Yashil" iqtisodiyot yo'lida mahallada amalga oshiriladigan ekologik ma'rifat orqali aholining ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida quyidagi eng muhim fazilatlar shakllantiriladi:



1. Ekologik tafakkur – bu Yerdagi mikro-, mezo-, makro- va global ekotizimlarga xos bo'lgan barcha tarkibiy qismlarning qadr-qimmatini va bir-biriga bog'liqligini chuqur tushunish, tabiat va hayotni saqlash nuqtai nazaridan o'z xatti-harakatlarining mumkin bo'lgan oqibatlarini uchun mas'uliyat va javobgarlikni his qilish.

2. Ekologik ong – inson ongining shakli bo'lib, ijtimoiy hayotning ekologik jihatini, odam va uning yashash muhiti, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning real amaliyotini aks ettiruvchi g'oyalar, nazariyalar, qarashlar, motivatsiyalar majmui.

3. Ekologik dunyoqarash – odamning o'z-o'ziga, o'zga kishilarga va o'z atrofidagi ekologik voqe'larga bo'lgan umumiy qarashlari tizimi bo'lib, jamiyat uchun yashash muhitini saqlashning hayotiy zarurligini chuqur anglashdan iborat.

4. Ekologik xulq-atvor – odamning atrof-muhitga ta'siri, tabiiy resurslardan foydalanishi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan o'ziga xos xatti-harakatlari va odatlari majmui.

5. Ekologik axloq – ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan va tabiatni saqlashga qaratilgan ta'qiq va talablar, urf-odat va an'analarning tartibga solingan to'plami.

Ekologik qadriyatlar – inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar doirasi bilan bog'liq qadriyatlar bo'lib, u quyidagi qadriyatli mo'ljallarni o'z ichiga oladi:

1. utilitar mo'ljal – tabiiy resurslar iste'moliga yo'nalgan bo'ladi;
2. saqlovchi mo'ljal – atrof-muhit muhofazasiga yo'nalgan bo'ladi;
3. qayta tiklovchi mo'ljal – tabiatning o'z-o'zini tartibga soluvchi kuchlarini tiklashga yo'nalgan bo'ladi.

“Yashil” iqtisodiyot strategiyasini mahallalar miqyosida ekologik madaniyatli shaxsni shakllantirish nuqtai nazardan amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

1) mahallada “yashil” iqtisodiyot asoslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, “sof” transportni rivojlantirish, energiya tejash va boshqa masalalarni e'tiborga olgan holda ekologiya maorifi tizimini kuchaytirish;

2) mahallada aholining turli qatlamlari va guruhlarini ekologik tayyorlash yoki malakasini oshirish maqsadida o'z yechimini kutayotgan “yashil” iqtisodiyot mavzulari bo'yicha ekologik ma'rifiy dasturlarni kengaytirish;

3) mahallada aholining turli qatlamlari va guruhlariga mo'ljallangan ekologik ma'rifiy interaktiv texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish (seminarlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar va boshqalar);

4) mahalla ahlining ijtimoiy ekologik ongi va madaniyat darajasini monitoring qilishning tashkiliy asosini ishlab chiqish va amalga oshirish;

5) mahallada zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ochiq ekologik axborotdan foydalanish tizimini yaratish.



ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi "2019- 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiklash to'g'risida" PQ-4477-son karori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019 y., 07/19/4477/3867-son.
2. Shavkat Mirziyoev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz / <https://president.uz/uz/lists/view/4942>
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «O'zbekiston», NMIU, 2017. - B. 486.
4. Etnoekologicheskie aspekty duxovnoy kultury / Red.: V.I. Kozlov, A.N. Yamskov, N.I. Grigulevich. - M., IEA RAN. 2005. - 324 s.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 8 oktabrdagi "Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishga doir namunaviy nizomlarni tasdiqlash to'g'risida" 287-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019 y., 09/19/195/2712-son.
6. Rustamboev M., Usmonov M., G'ofurov Z. Tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy va huquqiy asoslari. - T.: TMI, 2007. - 232 b.

